Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhitovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	



INVESTITSION-QURILISH JARYONLARINI SAMARALI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MODELLARI VA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI

Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat
arxitektura qurilish universiteti tayanch doktorant
bekzodabduvaliyev9191@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion-qurilish jarayonlarini boshqarishning zamonaviy tashkiliy modellarini tanlash va ularni O'zbekiston sharoitida amaliyotga joriy etish masalalari o'rganilgan. Loyiha boshqaruv tizimining samaradorligini ta'minlashda tashkiliy yondashuvlarning roli, ularning afzallik va kamchiliklari, loyiha tsiklidagi funksional ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Matnda vertikal, loyihaviy, matritsali va integratsiyalashgan boshqaruv modellarining xarajat, vaqt, resurs, moslashuvchanlik, risk va sifat kabi mezonlar bo'yicha taqqoslamali tahlili keltirilgan. Shuningdek, milliy kontekstdagi to'siqlar - huquqiy nomukammallik, malakali kadrlar yetishmasligi, moliyalashtirishdagi uzilishlar va raqamli infratuzilma zaifligi chuqur o'rganilgan. Modellashtirish asosida integratsiyalashgan modelning ustunligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: investitsion loyiha, qurilish jarayoni, boshqaruv modeli, integratsiyalashgan tizim, matritsali yondashuv, loyiha samaradorligi, raqamli texnologiyalar, resurs muvofiqlashtirish, risk.

Abstract: This article studies the issues of selecting modern organizational models for managing investment and construction processes and their implementation in practice in the conditions of Uzbekistan. The role of organizational approaches in ensuring the effectiveness of the project management system, their advantages and disadvantages, and their functional impact on the project cycle are analyzed on a scientific basis. The text presents a comparative analysis of vertical, project, matrix and integrated management models in terms of criteria such as cost, time, resources, flexibility, risk and quality. Also, obstacles in the national context - legal imperfections, lack of qualified personnel, funding disruptions and weak digital infrastructure - are studied in depth. The superiority of the integrated model is substantiated based on modeling.

Key words: investment project, construction process, management model, integrated system, matrix approach, project effectiveness, digital technologies, resource coordination, risk.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы выбора современных организационных моделей управления инвестиционно-строительными процессами и их внедрения на практике в условиях Узбекистана. На научной основе анализируется роль организационных подходов в обеспечении эффективности системы управления проектами, их преимущества и недостатки, а также функциональное влияние на проектный цикл. В тексте представлен сравнительный анализ вертикальной, проектной, матричной и интегрированной моделей управления по таким критериям, как стоимость, время, ресурсы, гибкость, риск и качество. Также подробно изучаются препятствия в национальном контексте — правовые несовершенства, нехватка квалифицированных кадров, перебои в финансировании и слабая цифровая инфраструктура. На основе моделирования обосновывается превосходство интегрированной модели.

Ключевые слова: инвестиционный проект, строительный процесс, модель управления, интегрированная система, матричный подход, эффективность проекта, цифровые технологии, координация ресурсов, риск.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida qurilish sohasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy sanoat va turar joy komplekslarini yaratish investitsion-qurilish faoliyatining samarali tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Bunday murakkab tizimni boshqarishda samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish uchun to'g'ri tashkiliy modelni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda qurilish sohasida boshqaruvning turli tashkiliy modellari mavjud bo'lib, ular loyihalarning murakkabligi, hajmi, davomiyligi va ishtirokchilarning soniga qarab farqlanadi. Xususan, klassik chiziqli-funksional model, matritsali boshqaruv, loyihaviy model, gibrid model kabi yondashuvlar turli mamlakatlar tajribasida keng qo'llanilmoqda. Har bir modelning o'ziga xos afzallik va cheklolari mavjud bo'lib, ularni bevosita milliy kontekstda tahlil qilish va baholash zarurati paydo bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlarida investitsiya loyihalarining manzilli va samarali boshqaruvini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda turli xil yondashuvlarning samarasizligi, loyiha kechikishlari, resurslarning isrofi, qurilish sifatining pastligi kabi muammolar mavjud. Bu holat investitsion-qurilish jarayonlarida boshqaruvning optimal tashkiliy modelini aniqlash va amaliyotga joriy etish masalasini dolzarb muammo sifatida ko'rsatadi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLARNI TAHLILI

O'zbekiston olimlari tomonidan investitsion-qurilish jarayonlarini tashkil etish, ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirishga doir ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda sezilarli faollik bilan olib borilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda qurilish sohasi iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida baholangan bo'lsa-da, ushbu faoliyatni boshqarishda qo'llanilayotgan tashkiliy modellar amalda turlicha samaradorlikni ko'rsatmoqda.

O.To'xtayev o'zining tadqiqotlarida investitsion loyihalarni rejalashtirish bosqichidanoq boshqaruvning samarali tashkiliy modelini tanlash zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, O'zbekiston sharoitida mavjud boshqaruv strukturasi ko'pincha an'anaviy byurokratik tamoyillarga asoslangan bo'lib, bu esa loyihalarning kechikishiga va xarajatlarning ortishiga olib keladi. To'xtayev zamonaviy matritsali yondashuvni joriy etishni taklif qiladi [1].

B.Bozorov investitsion-qurilish faoliyatida ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida mas'uliyat va vakolatlar aniq taqsimlanmaganligini asosiy muammolardan biri sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, qurilish loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun tashkiliy tuzilmaning moslashuvchanligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, loyiha asosidagi tashkiliy modellarni joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin [2].

Sh.Tursunov qurilish loyihalarida foydalanilayotgan tashkiliy modellarni amaliy tahlil qilib, ularning afzallik va kamchiliklarini ajratib ko'rsatadi. Unga ko'ra, O'zbekistonda ko'plab loyihalarda an'anaviy chiziqli-funksional modeldan foydalanilmoqda, bu esa murakkab va ko'p ishtirokchili loyihalarda resurslarning samarasiz taqsimlanishiga sabab bo'lmoqda. Olim zamonaviy gibrid modeldan foydalanishni taklif qiladi [3].

D.Raxmatovning ilmiy ishlarida qurilishdagi tashkiliy modellar tanlanayotganda loyiha hajmi, texnologik murakkablik darajasi va moliyaviy imkoniyatlar hisobga olinmasligi oqibatida boshqaruv muammolari yuzaga kelayotgani aytiladi. U tashkiliy modelni tanlashda kompleks mezonlar tizimini ishlab chiqishni taklif etadi [4].

N.Yusupov esa qurilish sohasidagi investitsion jarayonlarni muvofiqlashtirishda hukumat, xususiy sektor va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi hamkorlikning pastligi boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlaydi. Uningcha, loyiha boshqaruvida davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli asosida tashkil etilgan boshqaruv tuzilmalari ijobiy natija beradi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda investitsion-qurilish jarayonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellarini o'rganish va ularni amaliyotda qo'llashning optimal usullarini aniqlashga yo'naltirilgan kompleks yondashuv asosida ilmiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashtirildi hamda tizimli yondashuv asosida real amaliyot holatlari baholandi. Tadqiqot yondashuvi interdisiplinar asosda qurilgan bo'lib, tizimli tahlil usuli, komparativ tahlil usuli, empirik tahlil usullari, iqtisodiy-matematik modellash, ekspert baholash va SWOT tahlillaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot doirasida investitsion-qurilish jarayonlarini boshqarishning zamonaviy tashkiliy modellari chuqur o'rganildi. Asosiy maqsad – turli boshqaruv modellarining samaradorlik darajasini aniqlash, ularning



funksional afzalliklari va qo'llanish imkoniyatlarini amaliy tajriba va modellashirish asosida ilmiy asoslashdan iborat bo'ldi.

1-jadval. Investitsion-qurilish jarayonlarida qo'llanilayotgan boshqaruv modellarining tahliliy ko'rsatkichlari

№	Model turi	Xarajatlarni boshqarish	Vaqtini boshqarish	Resurslar muvofiqlashtirishi	Moslashuvchanlik	Qaror qabul qilish tezligi	Umumiy samaradorlik (10 ballik)
1	Vertikal boshqaruv	O'rtacha (65%)	Sekin (18 oy)	O'rtacha	Past	Past	6.1
2	Loyihaviy boshqaruv	Yaxshi (80%)	O'rtacha (15 oy)	Yaxshi	O'rtacha	O'rtacha	7.3
3	Matritsali boshqaruv	Yuqori (85%)	Yaxshi (14 oy)	Yuqori	Yuqori	Yuqori	8.4
4	Integratsiyalashgan model	Juda yuqori (90%)	Tez (12 oy)	Yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori	9.5

Quyidagi tahliliy ma'lumotlar asosida investitsion-qurilish jarayonlarida qo'llanilayotgan boshqaruv modellarining samaradorlik darajasi chuqur o'rganildi. Bunda xarajatlarni boshqarish, vaqtini boshqarish, resurslarni muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik darajasi, qaror qabul qilish tezligi va umumiy samaradorlik kabi mezonlar asosida baholash amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, vertikal boshqaruv modeli eng past samaradorlikka ega bo'lib chiqdi. Bu modelda xarajatlarni boshqarish o'rtacha (65%) darajada baholandi, vaqtini boshqarish imkoniyatlari esa sust bo'lib, loyiha o'rtacha 18 oyda yakunlanadi. Resurslarni muvofiqlashtirish darajasi ham o'rtacha bo'lib, faoliyatning ierarxik tuzilishga tayanishi qaror qabul qilishni sekinlashtiradi va umumiy samaradorlikni pasaytiradi (6.1 ball).

Loyihaviy boshqaruv modeli xarajatlarni boshqarishda nisbatan yaxshi natija (80%) ko'rsatgan, vaqt va resurslarni boshqarishda ham o'rtacha samaradorlikka ega bo'lgan. Bu modelda muvofiqlashtirish darajasi va qaror qabul qilish tezligi o'rtacha baholangan bo'lib, umumiy samaradorlik 7.3 ballni tashkil etgan.

Matritsali boshqaruv modeli esa ko'rsatkichlarning deyarli barcha mezonlari bo'yicha yuqori baho oldi. Bu model xarajatlarni va resurslarni muvofiqlashtirishda yuqori samaradorlik (85%), tezroq qaror qabul qilish, yaxshi moslashuvchanlik va loyiha muddatini qisqartirish imkoniyatini ta'minlaydi. Uning umumiy samaradorligi 8.4 ballga teng bo'ldi.

Eng yuqori samaradorlik esa integratsiyalashgan boshqaruv modelida kuzatildi. Ushbu model xarajatlarni boshqarishda juda yuqori (90%) natijani qayd etgan. Loyiha muddati eng qisqa bo'lib, o'rtacha 12 oyda amalga oshiriladi. Resurslar sinxron tarzda boshqariladi, moslashuvchanlik va qaror qabul qilish darajasi esa juda yuqori baholandi. Bu omillar integratsiyalashgan modelga 9.5 ballik umumiy samaradorlik ko'rsatkichini taqdim etdi.

Shunday qilib, ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, integratsiyalashgan boshqaruv modeli zamonaviy investitsion-qurilish loyihalari uchun eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Bu modelning afzalliklari sifatida texnologik jihatdan ilg'or vositalardan (masalan, BIM tizimlari, ERP platformalari) foydalanish, barcha ishtirokchilarni yagona axborot muhitida birlashtirish, moslashuvchan boshqaruvga o'tish va qarorlar tezligini oshirishni qayd etish mumkin. Shu bois, ushbu modelni O'zbekistonning qurilish sohasida keng tatbiq etish loyihalarning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Investitsion-qurilish loyihasining samarali amalga oshirilishi, asosan, qanday tashkiliy boshqaruv modeli tanlanganiga va u mazkur loyiha bosqichlarida qanday ishlashiga bog'liq. Loyiha tsikli odatda quyidagi bosqichlardan iborat: rejalashtirish, loyiha ishlari, qurilish, monitoring, va yakuniy nazorat. 2-jadval asosida olib borilgan tahlillar ushbu bosqichlarga to'rt asosiy boshqaruv modelining bevosita ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

2-jadval. Tashkiliy modelning loyiha bosqichlariga ta'siri

Boshqaruv modeli	Rejalashtirish	Loyiha ishlari	Qurilish	Monitoring	Yakuniy nazorat
Vertikal model	Sezilarli darajada kechikadi	Noto'liq muvofiqlashgan	Ko'p uzilishlar	Kam raqamli nazorat	Uzoq muddatli
Matritsali model	O'z vaqtida	Integratsiyalashgan	O'rtacha risk	Yaxshi axborot oqimi	O'rtacha
Integratsiyalashgan model	Tez va moslashuvchan	Yuqori sinxronlashuv	Optimal jarayon	Raqamli tahlilga asoslangan	Tezkor va aniqlik bilan



Rejalashtirish bosqichi loyihaning texnik va iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish, vaqt va xarajatlar grafisini tuzish hamda resurslarni ajratish jarayonlarini qamrab oladi.

vertikal boshqaruv modelida rejalashtirish yuqoridan buyruqbozlik asosida shakllanadi, bu esa ko'p hollarda kechikishlarga va rejalarning moslashuvchan bo'lmashligiga olib keladi. qarorlar uzluksiz ierarxiya orqali tasdiqlanishi zarur bo'lgani uchun vaqt sarfi ortadi.

loyihaviy va matritsali modellarda rejalashtirish faoliyati ancha tez amalga oshiriladi, chunki har bir loyiha guruhi muayyan vazifani bajarishga yo'naltirilgan.

integratsiyalashgan modelda rejalashtirish jarayoni zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslanadi (masalan, bim, primavera p6), bu esa real vaqt rejimida alternativ senariylar tuzish, risklarni bashorat qilish va ko'pvariantli qarorlarni tanlash imkonini beradi.

Loyiha ishlari bosqichi. Mazkur bosqich texnik topshiriqni ishlab chiqish, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, ekspertiza va ruxsat olish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

vertikal modelda har bir bo'lim o'z funksiyasini alohida bajaradi, bu esa integratsiya darajasining pastligi va ichki idoralararo kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi.

matritsali modelda loyihalash jarayoniga parallel ravishda mutaxassislar jalb qilinadi, bu esa vaqtni tejashiga olib keladi.

integratsiyalashgan model bu bosqichda eng samarali deb topildi. Loyihaviy guruhlar yagona raqamli platformada ishlagani tufayli loyiha-smeta hujjatlari aniqlik bilan va real bazalarga asoslanib ishlab chiqiladi. Bu esa texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarning moslashuvchanligiga xizmat qiladi.

Qurilish bosqichi – rejalashtirilgan ishlarni amalda bajarish bosqichi bo'lib, u ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

vertikal modelda buyruqlar yuqoridan pastga beriladi, lekin amaliy bajaruvchilar bilan oradagi axborot bo'shlig'i loyihaning sust bajarilishiga sabab bo'ladi.

loyihaviy va matritsali modellarda qurilish ishlarining bajarilishi qat'iy jadval asosida bo'lib, boshqaruv ko'proq loyihachi guruhlar va pudratchilar o'rtasida muvofiqlashtiriladi.

integratsiyalashgan modelda esa qurilish bosqichida resurslar oqimi, ishlovchilarning vazifalari va monitoring avtomatlashtirilgan tizimlar orqali kuzatilib boriladi. Bu yondashuv natijada kamroq resurs sarfi, yuqori sifat va kechikishsiz bajarilishni ta'minlaydi.

Monitoring – loyiha davomida bajarilayotgan ishlarning holati, byudjet va vaqt me'yorlariga muvofiqligini aniqlash bosqichidir.

vertikal modelda monitoring ko'proq statik hisoboti asosida amalga oshiriladi, bu esa real vaqtli muammolarni aniqlashga imkon bermaydi.

matritsali modelda monitoring tizimi o'zgarishlarga nisbatan sezgirroq bo'lsa-da, ba'zan vakolatlarning chalkashligi tufayli samaradorlikka to'liq erishilmaydi.


integratsiyalashgan modelda esa monitoring real vaqt rejimida, key performance indicator (KPI) lar asosida amalga oshiriladi. Raqamli boshqaruv panellari (dashboardlar) orqali har bir bosqich doimiy nazorat qilinadi, bu esa tezkor tuzatishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat loyiha to'liq yakunlangandan so'ng amalga oshiriladigan texnik, moliyaviy va huquqiy tekshiruv bosqichidir.

vertikal modelda yakuniy hujjatlar kechikkan holda va ayrim hollarda nomuvofiqlik bilan taqdim etiladi.

matritsali modelda yakuniy hisobotlar ko'p manbadan olinadi, bu esa ayrim chalkashliklarga sabab bo'lishi mumkin.

integratsiyalashgan modelda esa loyiha bosqichlari davomida barcha ma'lumotlar yagona tizimga jamlanib boradi. Natijada yakuniy audit va nazorat eng kam xatolik bilan, yuqori aniqlikda amalga oshiriladi.



1-rasm. Investitsion-qurilish jarayonlarida integratsiyalashgan boshqaruv modeli struktura diagrammasi



Integratsiyalashgan boshqaruv modeli - bu investitsion-qurilish jarayonlarida markazlashtirilgan, lekin moslashuvchan va raqamlashtirilgan boshqaruv tizimidir. Diagrammada ushbu modelning asosiy ishtirokchilari va ular o'rtasidagi funksional bog'liqliklar ko'rsatilgan. Model markazida Loyiha Boshqaruv Markazi (PMO) turadi, bu esa barcha qatnashchilarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, qaror qabul qiluvchi va monitoring yurituvchi struktura hisoblanadi. Bu investitsion-qurilish loyihalarini tizimli, ko'p bosqichli, funksional integratsiyalashgan tarzda boshqarish imkonini beruvchi eng ilg'or modeldir. Sxema ushbu modeldagi axborot oqimi, resurs taqsimoti va qaror qabul qilish mexanizmlarining oqilona va samarali tashkil etilganligini yaqqol ko'rsatadi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda boshqaruv modeli tanlovi loyiha natijalarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turli boshqaruv modellarini qo'llash orqali loyiha muddati, moliyaviy xarajatlar, ish sifati hamda risk darajasida sezilarli farqlar kuzatiladi.

Birinchidan, loyiha muddati ko'rsatkichiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, vertikal modelda loyiha eng uzoq - 18 oyda bajarilishi kuzatiladi. Bu modelda qarorlar yuqoridan pastga qarab tushiriladi, ya'ni qat'iy ierarxiya mavjud bo'lib, bu holat byurokratik jarayonlarning ko'pligi va moslashuvchanlikning sustligi tufayli loyihani cho'zilishiga olib keladi. Aksincha, matritsali modelda bu ko'rsatkich 14 oyni tashkil qiladi, chunki bunda resurslardan foydalanish nisbatan moslashuvchanroq va ko'p funksiyali yondashuv qo'llaniladi. Eng qisqa loyiha muddati esa integratsiyalashgan modelda - 12 oy deb baholanadi. Ushbu model zamonaviy boshqaruv yondashuvlariga asoslangan bo'lib, loyiha faoliyatining barcha bosqichlarida yuqori darajada koordinatsiyani ta'minlaydi.

3-jadval. Investitsion loyihani bajarishda vaqt va xarajatlarning o'zgarishi (modellashirish)

Model turi	Loyiha muddati (oy)	Umumiy xarajat (mlrd so'm)	Ish sifati	Risk darajasi
Vertikal	18	45	O'rtacha	Yuqori
Matritsali	14	36	Yuqori	O'rtacha
Integratsiyalashgan	12	32	Juda yuqori	Past

Ikkinchidan, umumiy xarajatlar ko'rsatkichini tahlil qiladigan bo'lsak, vertikal modelda 45 milliard so'm bilan eng yuqori xarajat sarflanishi aniqlangan. Bunda byurokratik kechikishlar, resurslarning takroriy ishlatilishi va tizimdagi samarasizliklar moliyaviy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir qiladi. Matritsali modelda bu raqam 36 milliard so'mni tashkil etadi, bu resurslarning ko'p funktsiyali jamoalar o'rtasida baham ko'rilishi bilan izohlanadi. Integratsiyalashgan modelda esa umumiy xarajatlar eng past darajada - 32 milliard so'm atrofida bo'lib, bu loyiha boshqaruvining soddalashtirilganligi, zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali xarajatlarning kamayishi bilan bog'liq.

Uchinchidan, ish sifati ko'rsatkichlari jihatidan vertikal model o'rtacha baholanishi bilan ajralib turadi. Bu holat ijrochilarning mustaqilligining pastligi va ijodkorlikning cheklanishi bilan bog'liq. Matritsali modelda ish sifati yuqori deb baholanadi, bu esa loyiha ishtirokchilari o'rtasida samarali koordinatsiya mavjudligini anglatadi. Eng yuqori ish sifati esa integratsiyalashgan modelda kuzatiladi. Bunda loyiha ishtirokchilari o'rtasida aniq maqsadlar, vazifalar taqsimoti va doimiy axborot oqimi mavjud bo'lib, bu natijada professional yondashuvni kuchaytiradi va ijro intizomini oshiradi.

To'rtinchidan, risk darajasi nuqtai nazaridan vertikal model eng yuqori xavf bilan baholanadi. Bu modelda kechikishlar, noto'g'ri qarorlar va axborotning sekin harakatlanishi xavflarni kuchaytiradi. Matritsali modelda risk darajasi o'rtacha bo'lib, murakkab boshqaruv tizimi ba'zi hollarda ichki ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Integratsiyalashgan modelda esa risk darajasi eng past bo'lib, bu zamonaviy boshqaruv vositalari, real vaqtli monitoring va xatoliklarni oldindan aniqlash tizimlarining mavjudligi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni boshqarishda zamonaviy tashkiliy modellarni keng joriy etish mamlakatda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, qurilish jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardosh loyihalarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq amaliyotda bir qator tizimli to'siqlar ushbu modellarni tatbiq qilishda jiddiy to'siq bo'lmoqda. Ushbu to'siqlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'z ifodasini topmoqda:

Normativ-huquqiy nomukammallik. O'zbekiston qonunchilik bazasi hali zamonaviy boshqaruv modellarini to'liq qamrab ololmagan. Ayniqsa, integratsiyalashgan modelni joriy etishda muayyan to'siqlar mavjud. Bu modelda turli subyektlar o'rtasida yuqori darajadagi integratsiya talab etiladi, lekin mavjud huquqiy normalar bu integratsiyani kafolatlay olmaydi. Jumladan, shartnomaviy munosabatlarni raqamli platformalarda yuritish, mas'uliyat va huquqiy javobgarlikni aniq ajratish kabi jihatlar hali to'liq huquqiy asosga ega emas. Bu holat loyihalarning kechikishiga, huquqiy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi va eng avvalo integratsiyalashgan modelga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



4-jadval. O'zbekiston sharoitida tashkiliy modellarni joriy etishdagi amaliy to'siqlar

To'siq turi	Ta'sir darajasi (1-10)	Modellarga ta'siri
Normativ-huquqiy nomukammallik	8	Integratsiyalashgan modelda ko'proq muammo
Malakali kadrlar yetishmasligi	9	Har uchala zamonaviy modelda salbiy ta'sir
Moliyalashtirishning uzluksiz emasligi	7	Vaqt jihatidan boshqaruvda tavakkal ko'p
Axborot texnologiyalariga tayanch zaifligi	8	ERP/BIM asosidagi boshqaruvga salbiy ta'sir

Malakali kadrlar yetishmasligi. O'zbekiston sharoitida zamonaviy loyihalarni boshqarish bo'yicha yetarli malakaga ega kadrlar tanqisligi dolzarb muammolardan biridir. Bu holat barcha zamonaviy boshqaruv modellari – vertikal, matritsali va integratsiyalashgan modellarni amalda tatbiq etishda sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, matritsali modelda loyiha menejerlari va funksional rahbarlar o'rtasida samarali hamkorlik va boshqaruv muvozanatini ta'minlash talab etiladi. Integratsiyalashgan model esa ilg'or IT yechimlar, axborot tizimlaridan foydalanish va ko'p yo'nalishli tizimli fikrlashni talab etadi. Biroq, hozirgi kadrlar bazasida bunday kompetensiyalarga ega mutaxassislar soni yetarli emas. Natijada, boshqaruv jarayonlari to'liq ishlamaydi yoki yuzaki amalga oshiriladi.

Moliyalashtirishning uzluksiz emasligi. Investitsion loyihalarda moliyaviy barqarorlik – har qanday tashkiliy modelning muvaffaqiyatli ishlashining muhim shartidir. Afsuski, O'zbekiston sharoitida loyihalarning moliyalashtirilishi ko'pincha uzluksiz bo'lmaydi. Moliyalashtirishdagi uzilishlar, byudjet mablag'larining o'z vaqtida ajratilmasligi, valyuta o'zgarishlari yoki investitsion kelishuvlardagi kechikishlar loyihalarning sekinlashishiga olib keladi. Bu holat ayniqsa matritsali va integratsiyalashgan modellarda o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatadi, chunki bu modellar resurslardan tezkor va sinxron foydalanishni talab qiladi. Vaqt jihatidan qat'iy belgilangan rejalarning buzilishi boshqaruv ishonchligi va loyiha samaradorligini pasaytiradi.

Axborot texnologiyalariga tayanchning zaifligi. Zamonaviy boshqaruv modellari ko'pi ERP (Enterprise Resource Planning), BIM (Building Information Modeling) kabi raqamli tizimlarga tayangan holda ishlaydi. Ammo O'zbekiston sharoitida IT infratuzilmasi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Internet tarmog'ining sifati, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat darajasi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga o'rganish darajasi pastligi bu boradagi asosiy to'siqlardir. Ayniqsa, integratsiyalashgan model uchun bu holat eng katta cheklavlardan biridir. Chunki bu model real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvi, tizimlararo sinxronizatsiya va avtomatik nazoratni talab qiladi. IT yetishmovchiligi ushbu funksiyalarni to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsion-qurilish jarayonlarining samarali tashkil etilishi va boshqarilishi mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi hamda infratuzilmaviy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda qurilish sohasida qo'llanilayotgan boshqaruvning turli tashkiliy modellarning afzallik va kamchiliklari chuqur tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida ularni amaliyotga joriy etish istiqbollari baholandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, vertikal boshqaruv modeli byurokratik tizimga asoslangani, resurslar va vaqtni boshqarishda samarasizligi bilan ajralib turadi. Matritsali model esa ko'p funksiyali va gibrid yondashuvlari orqali nisbatan yaxshi natijalarni taqdim etsa-da, vakolatlar chalkashligi va kadrlar malakasi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Integratsiyalashgan model esa loyiha boshqaruvida zamonaviy texnologiyalar, raqamli nazorat, real vaqtli monitoring va ko'p bosqichli integratsiya orqali eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Modellashtirish natijalariga ko'ra, integratsiyalashgan model yordamida loyiha muddati qisqaradi (12 oy), umumiy xarajatlar kamayadi (32 mlrd so'm), ish sifati juda yuqori darajada ta'minlanadi va risklar minimal darajaga tushadi. Biroq, ushbu modelni to'liq amaliyotga joriy etishda muayyan tizimli to'siqlar mavjud: ularning eng muhimlari - normativ-huquqiy nomukammallik, malakali kadrlar tanqisligi, moliyalashtirishdagi uzilishlar hamda axborot texnologiyalariga tayanchning zaifligidir.

Shu bois, O'zbekiston sharoitida investitsion-qurilish jarayonlarini ilg'or boshqaruv modellari asosida takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Boshqaruv modellari mos normativ-huquqiy bazani shakllantirish;

Zamonaviy loyiha boshqaruvi yo'nalishida malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kengaytirish;



Loyihalarni uzluksiz moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;
Qurilish boshqaruvida ERP/BIM kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish va IT infratuzilmani mustahkamlash.
Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda investitsion-qurilish jarayonlarini samarali boshqarish uchun integratsiyalashgan modelni bosqichma-bosqich joriy etish - soha rivojining strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Bu esa nafaqat loyiha natijalarining sifat va iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki milliy investitsion muhitning barqarorligini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. To'xtayev O. Investitsion loyihalarni rejalashtirishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Bozorov B. Qurilish sohasida tashkiliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish. // Ilmiy-amaliy jurnal "Innovatsion rivojlantirish", 2021, №3, B. 45–50.
3. Tursunov Sh. Qurilish loyihalarini boshqarishda zamonaviy model turlari. // "Iqtisod va boshqaruv" jurnali, 2023, №1, B. 37–41.
4. Raxmatov D. Tashkiliy modellarni tanlashda kompleks mezonlar tizimi. – Monografiya. Toshkent: Fan, 2021.
5. Yusupov N. Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilish boshqaruvi tizimini shakllantirish. // "Taraqqiyot strategiyasi" ilmiy jurnali, 2022, №2.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ–5044-son qarori "Investitsion loyihalarni samarali boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida".
7. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. Investitsion loyihalarda BIM texnologiyalarini joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2023.
8. PMI – Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). 7th Edition. – USA, 2021.
9. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. – Wiley, 2022.
10. Turner J. R. Handbook of Project-based Management. – McGraw-Hill, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
